



Xiva Xonligi vaqf hujjatlarida numerativlar

**Xorazm Ma'mun akademiyasi doktoranti
Rajabov Doniyor**

Annotatsiya

Mazkur maqolada Xiva xonligi hujjatlarida qo'llanilgan numerativlar ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Numerativlar – sanash birliklari bo'lib, ular o'rta asr hujjatlarida iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy munosabatlarni aks ettirishda muhim rol o'ynagan. Tadqiqot davomida Xiva xonligiga oid arxiv hujjatlari, soliq daftarlari va boshqa rasmiy yozishmalardagi numerativlarning lingvistik xususiyatlari o'rganiladi. Shuningdek, ularning turk, arab va fors tillari bilan o'zaro aloqasi tahlil qilinib, tarixiy davr tilining o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Maqola natijalari numerativlarning o'sha davr til tizimidagi o'rnini belgilashga hamda ularning amaliy qo'llanilishiga oid ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, numerativlar, hujjatlar tili, lingvistika, tarixiy tilshunoslik.

Xiva xonligi tarixi va huquqiy tizimida vaqf hujjatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjatlar faqat mulkchilik munosabatlarini emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotni tartibga soluvchi asosiy manbalardan biri sifatida ham namoyon bo'lgan. Ularning lingvistik jihatlarini o'rganish, xususan, numerativlarning ishlatilishini tahlil qilish, hujjatlarning semantik tuzilishi va ularning huquqiy tafsilotlarini anglash uchun muhimdir. Biz tadqiqotimiz obyekt sifatida Xonlik vaqf hujjatlarining sanoqli qisminigina olish bilan kifoyalandik. Vaqf hujjatlari asosan yer-mulk bilan bog'liq masalalar bo'lani bois numerativlar ham asosan tekislik-yuza va og'irlik o'lchov birliklarini tashkil qiladi.

Xiva xonligi arxiv hujjatlari ustida tilshunoslik bo'yicha bir qator olimlar tadqiqot olib borganlar. Jumladan, Q.Abdurahmonov¹, T. Yuldoshev², N.Karimov³, A.Xojiev⁴, M. Mirzaev⁵, M.Otaboeva⁶

¹ . Abdurahmonov, Q. (2015). "Xiva xonligi vaqf hujjatlari: lingvistik tahlil." Tarix va til madaniyati, 4-son, 45–58

² Yuldoshev, T. (2008). "Xorazm vaqf hujjatlari tilida son va miqdor ifodalovchi so'zlar." O'zbek tili va adabiyoti, 3-son, 33–40

³ Karimov, N. (2012). "Xiva xonligi hujjatlarida raqamlar va ularning semantikasi." Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi, 1(12), 78–85.

⁴ Xojiev, A. (2019). "O'rta asr Xorazm vaqf hujjatlari: lingvistik va paleografik tadqiqot." Toshkent: Fan nashriyoti

⁵ Mirzaev, M. (1997). "Xiva xonligi arxivlarida saqlanayotgan vaqf hujjatlari." Xiva: Kadimiy shahar, 2-son, 112–120

⁶ Otaboeva, M. (2020). "Vaqf hujjatlari tilining leksik-semantik xususiyatlari." Xalqaro turkologiya jurnali, 4(2), 89–101.



Xiva xonligida vaqflar turli mulk shakllarini boshqarish va taqsimlashda muhim rol o'ynagan. Masjidlari, madrasalar, hammomlar, bozorlarga oid hujjatlarda aniq sonlar va o'lchov birliklari (numerativlar) ko'p uchraydi.

Numerativlar – son va o'lchamni ifodalovchi birliklar bo'lib, ular vaqt, miqdor, hajm, maydon, masofa va boshqa kategoriyalarni aniq belgilash uchun ishlatilgan. Xiva xonligi hujjatlarida quyidagi numerativlarga ko'p uchraymiz:

Hajm va maydon o'lchovlari: tanob, cho'b, jarib, qop

Vazn birliklari: botmon, mann, qadoq

Masofa birliklari: farsax, chaqirim

Pul birliklari: tilla, tangalar (mis, kumush, oltin)

Vaqt birliklari: yil, oy, kun

Vaqf hujjatlarida mulk taqsimoti va unda qo'llaniladigan numerativlar huquqiy me'yorlar asosida tartibga solingan. Masalan, biror madrasa yoki masjidning daromadlari belgilangan miqdordagi ekin yerlari yoki bozor rastalari orqali ta'minlangan bo'lsa, hujjatlarda bunday maydonlarning aniq numerativlar bilan ifodalanishi huquqiy va iqtisodiy jihatdan muhim bo'lgan. Hujjatlarda numerativlarni asosan uch turga bo'ldik. Bular :

- a) og'irlik o'lchov birligi;
- b) yuza-tekislik o'lchov birligi;
- c) qiymatni bildiruvchilar.

Fayzosor Ollohquli eshon boboni masjid va madrasalarining vaqf yeri bir yuz ellik **tanob** yer erkan.

va yana **tanga** vaqfi olti yuz ellik **tillo** erkan.⁷

boqi qolg'on uch yuz ellik **tilloni** imom olsunlar debdurlar.⁸

Ollohberganboy hojini qorixonasining besh yuz **tillo** vaqfi bor erkan.⁹

Masjidi Mergan Avbosining vaqf yeri chahor-yak kam olti **tanob** imomtan, bir **tanob** chahor-yak yeri olti **botmon** sholig'a ijara.¹⁰

Masjidi Qobil og'oning vaqf yeri o'n bir tanob chahor-yak, ijarasi to'qquz **botmon** g'alla bila o'n ikki **tillo** erkan.¹¹

⁷ Xiva xonligi arxiv hujjatlari 7-raqamli hujjat 8-bet

⁸ Xiva xonligi arxiv hujjatlari 8-raqamli hujjat 8-bet

⁹ Xiva xonligi arxiv hujjatlari 8-raqamli hujjat 8-bet

¹⁰ Xiva xonligi arxiv hujjatlari 10-raqamli hujjat 8-bet

¹¹ Xiva xonligi arxiv hujjatlari 7-raqamli hujjat 8-bet



Musoboyning Qorixonasining vaqf yeri yarim **tanob** oʻn ogʻri yer bila besh yuz tillo.¹²

Masjidi Gʻoyibquli Shayxning vaqf yeri toʻrt tanob, ijarasi oʻttuz besh botmon gʻalla, tanga vaqfi yuz ellik tillo.¹³

Masjidi Ollohshukurboyning vaqf yeri oʻn toʻrt tanob qirq ogʻri, ijarasi qirq botmon gʻalla bila oʻn yetti tillo.¹⁴

Masjidi Eshboy qazoqning vaqf yeri oʻn uch tanob qirq ogʻri, ijarasi qirq botmon gʻalla, tanga vaqfi yuz besh tillo. Masjidi Mullo Muhammadnazarining vaqf yeri toʻrt yarim tanob, ijarasi uch tillo, tanga vaqfi yuz tillo¹⁵

Masjidi Mullo Muhammadnazarining vaqf yeri toʻrt yarim tanob, ijarasi uch tillo, tanga vaqfi yuz tillo.

Yuqoridagi misollardan koʻrishimiz mumkinki, asosan “botmon”, “tanob”, “tanga”, “tillo” hisob soʻzlari oʻsha davr vaqf hujjatlarida faol qoʻllanilgan. Xiva xonligi hujjatlarida uchraydigan numerativlar, nafaqat iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi, balki oʻsha davrda amalda boʻlgan huquqiy tizim va ijtimoiy tartibni tushunishga ham yordam beradi. Bu birliklar oʻsha davrda qanday hisob-kitob va huquqiy normalar amal qilganligini koʻrsatadi. “Tanob” soʻzi bugungi kunda ayrim iboralar tarkibida saqlanib qolgan. Masalan, “ogʻzining tanobi qochmoq”, “tanobini tortib qoʻymoq” kabi. “Botmon” soʻzi Xorazm shevasida katta, qoʻpol va ogʻir maʼnolarida qoʻllaniladi. “Botmon” soʻzi folklor namunalarida ham uchraydi. “Alpomish” dostonida Alpinbiyning 14 botmonlik yoyi haqida gap ketadi.

Xulosa

Xiva xonligi vaqf hujjatlaridagi numerativlar bu hujjatlarning rasmiy va iqtisodiy tahlilini amalga oshirish uchun muhim manba hisoblanadi. Ular orqali Xiva xonligidagi huquqiy va iqtisodiy hayot haqida aniq tasavvurlar hosil qilish mumkin. Ushbu mavzu boʻyicha ilmiy tadqiqot olib borish, tarixiy hujjatlarni lingvistik va huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilish muhim ilmiy natijalarga olib kelishi mumkin.

¹² Xiva xonligi arxiv hujjatlari 7-raqamli hujjat 8-bet

¹³ Xiva xonligi arxiv hujjatlari 10-raqamli hujjat 8-bet

¹⁴ Xiva xonligi arxiv hujjatlari 7-raqamli hujjat 8-bet

¹⁵ Xiva xonligi arxiv hujjatlari 8-raqamli hujjat 8-bet



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Q. (2015). Xiva xonligi vaqf hujjatlari: lingvistik tahlil. Tarix va til madaniyati, 4-son, 45–58.
2. Alpomish (Akademik nashr), T., 1999
3. Yuldoshev T. (2008). Xorazm vaqf hujjatlari tilida son va miqdor ifodalovchi soʻzlar. Oʻzbek tili va adabiyoti, 3-son, 33–40.
4. Karimov N. (2012). Xiva xonligi hujjatlarida raqamlar va ularning semantikasi. Xorazm Maʼmun akademiyasi axborotnomasi, 1(12), 78–85.
5. Xojiev A. (2019). Oʻrta asr Xorazm vaqf hujjatlari: lingvistik va paleografik tadqiqot. Toshkent: Fan nashriyoti.
6. Mirzaev M. (1997). Xiva xonligi arxivlarida saqlanayotgan vaqf hujjatlari. Xiva: Kadimiy shahar, 2-son, 112–120.
7. Otaboeva M. (2020). Vaqf hujjatlari tilining leksik-semantik xususiyatlari. Xalqaro turkologiya jurnali, 4(2), 89–101.
8. Bregel Y. (2003). Xorazmning tarixiy geografiyasi. Toshkent: Sharq nashriyoti.
9. Xiva davlat arxivi fondlarida saqlanayotgan vaqf hujjatlari asl nusxalari (raqamli katalog: Xiva Arxivi).